

## THE ABSURD HERO OF ALBER CAMUE AND KHURSHID DOSTMUHAMMAD

Iymona Mahkamboy qizi MAKHMUDOVA

Doctoral student

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

## ALBER KAMYU VA XURSHID DO'STMUHAMMADNING ABSURD QAHRAMONI

Iymona Mahkamboy qizi MAXMUDOVA

Doktorant (PhD)

O'zbekiston milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

## АБСУРДНЫЙ ГЕРОЙ АЛЬБЕРА КАМЮ И ХУРШИДА ДОСТМУХАММАДА

Иймона Махкамбой кизи МАХМУДОВА

Докторант (PhD)

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан [nabieva\\_iymona@gmail.com](mailto:nabieva_iymona@gmail.com)

### For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Maxmudova I.M. Alber Kamyu va Xurshid Do'stmuhammadning absurd qahramoni.// O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 3. — B. 294-308.

<https://doi.org/10.36078/1751140921>

**Received:** March 27, 2025

**Accepted:** June 17, 2025

**Published:** June 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



**Abstract.** This article presents a comparative analysis of the philosophical and literary visions of Khurshid Dostmuhammad and Albert Camus, with a focus on their integration of philosophical thought and the inner spiritual world of their characters. The primary object of study is Dostmuhammad's novel *The Wise Sisyphus*, which introduced new thematic and formal elements into Uzbek literature. As a philosophical novel, it requires an understanding of symbolic and absurdist concepts to grasp its deeper meanings. Particular attention is given to the portrayal of the human psyche, inner states, and existential moods, explored through artistic expression and psychoanalytic interpretation. The article highlights the unique narrative styles of Dostmuhammad and Camus, both of whom explore the psychological dimensions of their characters with distinctive methods. Dostmuhammad, influenced by Eastern-Islamic literary and aesthetic traditions, constructs *The Wise Sisyphus* using motifs from national folklore and Eastern religious thought, while also incorporating global literary techniques. His depiction of the psyche ranges from symbolic to realistic, underscoring themes of individualism and the absurd. The study draws parallels between Dostmuhammad's *The Wise Sisyphus* and Camus's essay *The Myth of Sisyphus*, employing sociological, psychological, structural, and comparative-typological methods of analysis.

**Keywords:** philosophical fiction; character psychology; artistic expression; symbolic imagery; absurdism; mythological structure; Eastern aesthetics; comparative literature; Khurshid Dostmuhammad; Albert Camus.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Xurshid Do'stmuhammad va Alber Kamyuning ijodi tahlil etilib, ularning adabiy ijodda individual qarashga ega ekanliklari bilan birgalikda asar qahramonlarining falsafiy tafakkur unsurlari, ichki ruhiy olamini uyg'unlashtirishga

intilganliklari asosiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganildi. Yozuvchi Xurshid Do'stmuhammadning "Donishmand Sizif" asari mazmun va shakl jihatdan adabiyotimizda yangilik bo'ldi. Biroq asar falsafiy roman bo'lib, mavzuning yoritilishida ramziylik va absurd g'oyalarini anglash muhim sanaladi. Birinchidan, unda inson ruhiyatining, botiniy olami, kayfiyati turli rakurslarda tasvirlanishi o'rganib chiqildi. Asosiy e'tibor badiiy obraz ya'ni ijodkorning dunyo bilan aoqasi ta'sirida paydo bo'lgan kechinmalari ifodasiga qaratilgan. Shuning uchun ham falsafiy romanlarda psixoanaliz muhim. Ayniqsa, shaxs ruhiyatini betakror chizgilarda tasvirlash X. Do'stmuhammad va A. Kamyu uslubiga asosiy e'tibor qaratildi. Sharq-islom adabiy-estetik tafakkuri ta'sirida kamol topgan adib Sizif bilan bog'liq an'anaviy mavzuni milliy folklor, Sharqona e'tiqodiy qarashlar negizida, jahon adabiyoti badiiy ifoda usullaridan keng foydalangan holda "Donishmand Sizif" romanini yaratdi. Ikkinchidan "Donishmand Sizif" asarida obraz ruhiyati betakror uslubda ifodalangan. X. Do'stmuhammad shaxs ruhiyatini ba'zan ramzlar orqali, ba'zan real tasvirlaydi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, har ikkala yozuvchi ijodida ham individualizm va absurd alohida ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalariga ko'ra Xurshid Do'stmuhammadning "Donishmand Sizif" romani va Alber Kamyuning "Sizif haqida afsona" essesi obyekti sifatida tanlangan. Maqolada sotsiologik, psixologik, struktural, qiyosiy-tipologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Kalit so'zlar:** falsafiy g'oya; qahramon xarakteri; badiiy tafakkur; psixologik tasvir; ramziy romanlar; ramziy-majoziy obrazlar; absurd nazariyasi; mifologik syujet; kompozitsion mukammallik.

**Аннотация.** В статье представлен сравнительный анализ философско-литературного мироощущения Хуршида Дустмухаммада и Альбера Камю, с акцентом на их стремление соединить философское мышление с внутренним духовным миром героев. Основным объектом исследования выступает роман Хуршида Дустмухаммада «*Мудрый Сизиф*», открывший новые тематические и формальные горизонты в узбекской литературе. Как философский роман, произведение требует осмысления символизма и абсурдистской эстетики для глубокого понимания авторского замысла. Особое внимание уделяется изображению человеческой психики, внутренних состояний и экзистенциальных настроений, раскрытых через художественное выражение и психоаналитический подход. Отмечается уникальный авторский стиль Х. Дустмухаммада и А. Камю, в котором психология персонажей раскрывается различными художественными средствами. Дустмухаммад, находящийся под влиянием восточно-исламской литературной и эстетической традиции, создает роман на основе национального фольклора и религиозно-философских взглядов Востока, органично сочетая их с методами мировой художественной литературы. Образная структура романа варьируется от символического к реалистическому, раскрывая темы индивидуализма и абсурда.

Сравнение романа «*Мудрый Сизиф*» и эссе Альбера Камю «*Миф о Сизифе*» осуществляется с использованием социологических, психологических, структурных и сравнительно-типологических методов анализа.

**Ключевые слова:** философская проза; психология героя; художественное выражение; символизм; абсурдизм; мифологический сюжет; восточная эстетика; сравнительная литература; Хуршид Дустмухаммад; Альбер Камю.

### Kirish

Ramz – (arabcha “ishora qilmoq”) voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli bo‘lib, tasvir jarayonida yozuvchining ijodiy niyatini ya’ni badiiy tafakkurini ramziy-majoziy obrazlar orqali ochib berishga xizmat qiladi [Quronov, Mamajonov & Sheraliyeva 2010: 350]. Hozirgi o‘zbek adabiyoti nasrida voqelikdan ko‘ra psixologik tasvirga, maishiy turmushga qaraganda, insonning o‘z ichki dunyosi tasviriga ko‘proq ahamiyat qaratilmoqda. Boisi bugungi globallashuv jarayonlari bevosita tashqi muhit ijodkorning va kitobxonning badiiy-estetik didiga ta’siri natijasida kitobxon nigohi ichki “men”ga qaratilmoqda. Shu jihatdan aytish mumkinki, insonning ichki olamini, uning qalbida kechayotgan tug‘yonlarni ramzlar orqali ifodalash yozuvchidan yuksak mahorat talab etadi [Boltaboyev 2015: 478].

Darhaqiqat, ramziy obraz, detal, syujetlar ko‘zda tutilgan ma’noni aniq ifoda etmaydi, balki mavhumlashtiradi. Shuning uchun ramziy asarlar yoxud ramz orqali g‘oyaviy mazmun anglashiladigan badiiyat namunalari o‘quvchiga to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘z sirini ocha qolmaydi. Ramziylik o‘zida aniq belgi va mavhum ma’noni birlashtirib turadi, aniq belgilar birlashtirilganda, mavhum ko‘ringan ma’no aniqlashadi [Abdurahmonova 2025: 15]. X. Do‘stmuhammad va A. Kamyu asarlarida belgining mavhumlashtirilib ramzlashtirilishi o‘z ifodasini topgan bo‘lib, mazkur romandagi ramziy belgilar birlashtirilmaguncha uning badiiy g‘oyasi ochilmay qolaveradi. Ayniqsa, bugungi kun romanlarida ramzdagi belgini mavhumlashtirib, imkon boricha kodlab ifodalash urfga kirmoqda.

### Adabiyotlar tahlili va metodologiya

X. Do‘stmuhammadning “Donishmand Sizif”, N.Eshonqulning “Go‘ro‘g‘li”, I. Sultonning “Ozod”, U. Hamdamning “Yo‘l” kabi falsafiy romanlari ham shunday asarlar sirasiga kiradi. Bu romanlarning mushtarakligi shundaki, voqelik ramzlar ustida qurilgan. Hozirgi o‘zbek adabiyotida ham ramzlarga yo‘g‘rilgan hikoya, qissa va hatto boshdan oxir ramziy xarakterdagi intellektual romanlar dunyoga kelmoqda. Jumladan, Nazar Eshonqul, Ulug‘bek Hamdam, Isajon Sulton kabi ijodkorlarning an’anaviylikdan va jahon tajribalaridan keng foydalanib, yangicha ramziy-majoziy obrazlar yaratishi ma’lum ma’noda alohida bir uslubni vujudga keltirmoqda. Muayyan millat adabiyoti o‘zga xalq adabiyotiga to‘laligicha ta’sirini o‘tkaza olmaydi. Uslub, shakl va mazmun, syujet, obraz, epizod kabi jihatlarida ijodiy ta’sirlanishlar kuzatiladi, ayrim asarlarda hatto qahramon nomlarining ham ko‘chib o‘tish holatlari ko‘zga tashlanadi. Bunday holatlarni ba’zan mualliflarning favqulodda ijod mahsuli yoki adabiy ta’sirlanish, adabiy sintezlashuv jarayondir [Rasulov 2006: 114].

Muallif asar syujetini qurishda yunon mifologiyasi, qadim yunon dostonlariga tayanadi. Qahramon xarakteri esa bir qancha obrazlarning gibridlashuv jarayonida shakillantiriladi. X. Do‘stmuhammadning Szif obrazi D. Defoning Robinzon Kruzo obrazi, Xemingueyning

Santyagosi, Kamyuning Mersosi, Dostoevskiyning Raskolnikovi kabi bir nechta obrazlar hamda milliy folklor motivlarining sintezlashuv hosilasidir. Ayni hodisa o'laroq Sizif obrazi o'zigacha bo'lgan talqinlaridan bir qadar universalroq, mukammalroq ko'rinadi [Asadov 2020: 118].

Chunonchi, Xurshid Do'stmuhammadning "Donishmand Sizif" romani va Alber Kamyu essesi yunon miqlari ta'sirida dunyoga kelgan, ammo asarda butunlay boshqa bir mazmunning yetakchiligi kuzatiladi. Unda tasvirlangan voqealar an'anaviy usuldagi badiiy namunalardan farqli ravishda insonning ichki kechinmalarini va psixologik holatlarini ramzlar yordamida yoritishga asoslanadi [Karimov 2010: 215].

### Muhokama va natijalar

Ma'lumki, Sizif haqida Gomer, Esxil, Sofokl, Yevripid, Kritiy singari buyuk yunon mutafakkirlari, Sartr, Joys, Kafka, Prust, Merlp, Nikitin va boshqa o'nlab Yevropa adiblari turli janrlarda asarlar yaratishgan. Ularda Sizif turli qiyofa va xarakterda namoyon bo'ladi. Lekin barchasi uchun yagona xususiyat mavjud: Sizif firibgar, xudolarni aldagan, ularning sirini fosh qilgan, bo'ysunmagan, amrini bajarishdan bo'yin tovlagan. Bunday shakkokligi va qaysarligi uchun u xudolar tomonidan qattiq jazoga mahkum etiladi: uning zimmasiga ulkan xarsangtoshni pastlikdan tog'ning eng baland cho'qqisiga yumalatib olib chiqish vazifasi yuklanadi. Hukm qat'iy, shikoyatga o'rin yo'q. Tosh esa Sizifga begona emas. Gomerning tasvirlashicha, Sizif aslida o'ta ta'magir, shuhratparast, xudbin, yo'lto'sar-qaroqchi bo'lgan va yo'lovchilarni tunab, boyliklarini tortib olgach, ularni ana shu tosh ostiga bostirib, azoblab o'ldirishdan zavqlangan. Maqolada Alber Kamyu va Xurshid Do'stmuhammadning asarlaridagi Sizif obrazi va qahramon ruhiyati qiyoslanib, universal va farqli jihatlari bayon etiladi [Boboyev 2002: 263].

"Donishmand Sizif" romani syujeti yunon dostonlari, Kamyu va X. Do'stmuhammad asarlarida o'xshash bo'lsa-da, qahramon xarakterini yaratish masalasida esa muayyan tafovutlar yuzaga keladi. Har ikki asarda xarakter yaratish individual yondashuv va milliy mentalitet mezonlari asosida belgilanadi. Muallif asar badiiy konsepsiyasini sharqona ma'naviyat va estetik tafakkur qarashlari negizida shakllantiradi. X. Do'stmuhammad o'zigacha bo'lgan Sizif talqinlarini barchasini ko'radi, kuzatadi, uning holati haqida tafakkur qiladi. Bu obrazni badiiy sintezlab, unga milliy ruh va xarakter beradi. Shu o'rinda, adabiyotshunos A'zamxon Qozixo'ja ta'kidlaganidek, *"ijodkor shaklni tashqaridan olishi mumkin, lekin mohiyat, mazmun o'ziniki bo'lmasa, u shunchaki taqlidchidan nariga o'ta olmaydi"* [Asadov 2020: 120].

Kamyuning "Donishmand Sizif" essesinde xudolarning Sizifga nisbatan bergan jazosida ikki ma'no bor: birinchisi, bundan keyin odamlar shu tosh ostida qolib azob tortmasligi uchun Sizif uni yuqoriga olib chiqib qo'yishi shart; ikkinchisi, ajabmas, Sizifning o'zi toshni balandlikka olib chiqayotganda qayta dumalab ketgan toshning tagida qolib azoblansa; Xudolarning fikricha, bandasi uchun befoyda va

samarasiz mashg'ulotni bajarishdan og'irroq jazo yo'q. Sizif esa o'limga mahkum etilganlar orasida eng dono va hushyor kimsa hisoblanadi. U shu yerda ham xudolarni aldashga, o'zining "haq"ligini isbotlashga urinadi [Kamyu 2014: 65].

Sizif tabiatidagi xuddi mana shu qirralarga Kamyu boshqacha yondashadi. Adib Sizif siymosida zolimlarga qarshi kurashuvchi proletar timsolini ko'radi. "Xudolarning proletariysi, o'jiz bo'lsa-da, isyonkor Sizif, — deb yozadi Kamyu va o'zining tunganmas qayg'uli qismatini yaxshi biladi; bu haqda u pastlikka tushayotganda o'ylaydi" [<https://www.ziyouz.com>].

Kamyuning ifodalashicha, Sizif jahannamning mangu malayidir. Yozuvchi bu afsonadagi ramziy obraz hamda makon orqali real hayotga munosabat bildiradi. Uningcha, inson yashayotgan hayotning o'zi do'zax azobidan iborat. Odam bu hayotda qanday yashashni, kimga ishonishni, nimaga ko'ngil qo'yishni bilmaydi. "Shundan anglashiladiki, Sizif absurd qahramon", degan xulosaga keladi Kamyu [Mirvaliyev 1983: 35].

Demak, bu ma'nisiz hayotda foydasiz urinish va ro'yobga chiqmaydigan umid bilan yashash absurdning falsafiy mohiyatini tashkil etadi. Sizif o'zining yer yuzidagi zavq-shavqli hayoti-yu, dahshatli qilmishlari, jahannamda tortayotgan azob-uqubati-yu kulfatlari bilan boshqalarga o'rnak bo'lishi kerak. Odamzod foni dunyoda kechirgan behuda qilmishlari uchun boqiy dunyoda javob berishga majbur. Ajabki, insoniyat hayotining ikki bosqichidan (tiriklik va o'limdan keyin) kelib chiqadigan bu xulosa absurd falsafasining islom dini qoidalari va shartlariga ham yaqin kelishini ko'rsatadi.

Endi Sizif xudolar hukmini ado etishga majbur. U tinimsiz ravishda ulkan toshni dumalatib (ko'tarib emas!) tepalikka olib chiqishga urinadi. Manzilga yetay deganda tosh yana pastga dumalab ketaveradi. Ammo Sizif ahdidan qaytmaydi, u takror va takror xarsangni tepalikka olib chiqishga intilaveradi. Sizif tosh orqasidan asta-sekin pastlikka tusha boshlaydi. *"Meni mana shu ozgina fursatda namoyon bo'lgan Sizif qiziqtiradi, — deb yozadi Kamyu. — Uning toliqqan yuzini toshdan farq qilib bo'lmaydi! Men tunganmas azob-uqubatlari tomon horg'in, biroq shaxdam qadamlar bilan tushib kelayotgan odamni ko'rib turaman. U shu paytda nimalarni o'ylayotgan ekan? Shu asnoda nafas olishi bilan hamohang ravishda uning ongi ham uyg'ona boshlaydi. Uyiga, xudolar tomonidan mangu in'om etilgan g'origa qaytar ekan, Sizif har daqiqada o'z qismatidan yuqoriga ko'tariladi. U o'z toshidan ham qattiqroq irodaga ega bo'la boshlaydi"* [Kamyu 2014: 63].

A. Kamyu Sizifni qadam-baqadam kuzatadi, xuddi uni ko'rib turgandek tasvirlaydi. Zero, uning qismatida, amalga oshmaydigan faoliyatida Kamyu o'z ideallarini ko'radi. O'zini xuddi Sizif singari chorasiz his qiladi. Ammo umid Kamyuni ham, Sizifni ham tark etmaydi. Shu ma'noda absurd umidni inkor qilmaydi. Umidsizlik absurdning ashaddiy raqibi hisoblanadi. Sababi shundaki, garchi absurd so'zi "ma'nisiz, tuturiqsiz" degan ma'nolarni anglatga ham, badiiy asardagi absurd g'oyasi insonning ana shu ma'nisiz, tuturiqsiz hayotda

umid bilan yashab, biron-bir iz qoldirish, umridan mazmun qidirishdan iboratdir. Bu mantiqsiz hayotda umid bilan yashash absurd g'oyasining asosini tashkil qiladi. Ammo bu amalga oshmaydigan umiddir, sarobdir [Yoqubov 1983: 58].

B.

### **Umid + ishonch + isyon + kuchli iroda — absurd falsafa**

Kamyu Sizifning xatti-harakatlarida qachonlardir toshni qoyaga olib chiqishiga bo'lgan ishonchli umidini tasavvur etadi. "Ongi uyg'ona boshlagan qahramonga nega bo'lgan bu afsona g'oyat fojeiydir. Har qadamda uni g'alabaga bo'lgan umid qo'llab tursa, yana qanaqa azob-uqubat to'g'risida gap bo'lishi mumkin?!" deya ta'kidlaydi Kamyu. Sizif harakatlarining zoye ketishini, tosh tepalikda turib qolmasligini yaxshi biladi. Ammo u o'z taqdiri ustidan ana shunday fojeiy hukm chiqargan xudolarga qarshi qasdma-qasdiga ishini davom ettiradi. Bu uning ongli isyonidir. Baribir, hukmni ijro etib, o'zini hukmfarmonbardorlarga ko'rsatib qo'yishni istaydi. Mana shu xarakteri bilan Sizif ruhiyati Kamyuga yaqin. Chunki Kamyu ham butun umri mobaynida hayotdagi norasoliliklarga, tengsizlikka, millatlar va elatlarni kamsitishga, o'zaro urush-janjalgacha, zulmga, inson erkini poymol qilishga qarshi isyon ko'targan, ammo umidlari puchga chiqqan adib edi [Matyoqubova 2011:89].

"Donishmand Sizif" asari Xurshid Do'stmuhammad tomonidan absurd nazariyasi va amaliyotiga oid ko'plab ilmiy hamda adabiy manbalarni sinchiklab o'rganish, o'zaro taqqoslash, tahlil etish samarasi sifatida dunyoga kelganligi sezilib turadi. Voqelik nigohi bilan yondashgan yozuvchi Alber Kamyuning g'oyaviy niyatlarini Sizif va xarsang obrazlari orqali yanada kengaytiradi, uning xarakteriga yangicha fazilatlarini qo'shadi, boyitadi, badiiy jihatdan isbotlab beradi. Natijada absurd ta'limoti ma'nisizlik targ'ibotchisi emas, aksincha, hayotni ma'no va mazmun bilan boyitish insonning o'ziga bog'liq ekanligini, buning uchun u umid bilan yashashi, fikr qilishi lozimligi ayonlashadi. Asar ana shu g'oyaviy niyatni o'ziga asos qilib olganligi va badiiy jihatdan ishonarli ifodalab berilganligi bilan ham qimmatlidir.

X. Do'stmuhammad ushbu yechimga o'zgacha rakursdan yondashadi. Adib Sizif obrazining oldingi talqinlarida kuzatiluvchi: hiylakorlik, makkorlik, kazzoblik, dog'ulilik, yolg' onchilik, isyonkorlik singari salbiy sifatlarni inkor etadi. Chunki uning xarakterida Korinf shahrini bunyod etish, mamlakat xazinasini boyitish, odamlarni vabodan qutqarish, ularga shodlik ulashish, isrofgarchiliklarga barham berish, har qanday mushkulotni tafakkur kuchi hamda yaqin mahramlar maslahati bilan oqilona hal etish, nurga talpinish, mehnat-u mashaqqatdan cho'chimaslik kabi qat'iyat va zukkolik, kuchli iroda mujassam. Bularning barchasi Sizifni donishmand deyishga asos bo'ladi. Romanning nomlanishi ham obrazni poetik idrok etish bilan izohlanadi [Rasulov 2026: 95].

Sizifning insonparvar nigohi, yanada aniqroq aytganda, mustaqillik davri romaniy tafakkuri va X. Do'stmuhammad falsafiy-



estetik nuqtai nazari bilan Zevs obrazining qadimgi talqinlariga nazar tashlasak, vaziyat tubdan o'zgaradi. Asotirlar mazmunini mutlaqo yangicha anglashga urinish, shu asosga tayanib milliy roman yaratish — bu inson mohiyati, u umrguzaronlik qilayotgan zamin va samovot haqida chuqurroq bilishga bo'lgan kuchli intilish hamda yangicha poetik izlanishlar samarasi.

Qur'oni karimda kelishicha, Ollohning zotida nuqson va qusurlar, ziddiyat, nomutanosiblik, beqarorlik, bilmaslikdan bilishga qarab yo'nalish kabi jarayonlar yo'q. Mutlaq borliqning yaratuvchisi barcha narsani bilguvchidir. Foniylar dunyoda hamma narsalar oddiylardan murakkablikka, tartibsizlikdan tartibga, norasollikdan kamolotga qarab yuz tutadi. Inson doimiy o'zgarish va ziddiyatli munosabatlar og'ushida yashaydi. Chunki, u notug'al yaratilgan. Uning aqli yaratuvchi ato etgan imkoniyat darajasida yuksalishi, pirovardida o'zini tanishi va asl makoniga qaytishi lozim [Yoqubov 2021: 115].

Tabiat hodisalari asroriga insoniy xususiyat bag'ishlagan qadimgi insonning dunyoqarashi va badiiy tafakkurida antropomorfizm yetakchilik qilgan. Shuning uchun, bemalol aytish mumkinki, yunon xudolari insonning o'zini yaxshiroq tushunishi, niyat, so'z va amalini anglab yetishi, jismoniy va ruhiy qudratini munosib baholashga yordam beruvchi timsollar edi. Sharq mutafakkirlarining merosi va joriy adabiy jarayon tajribasi shuni tasdiqlaydiki, qadimgi yunon afsona-yu rivoyatlaridagi taqdiri azal va mahkumlikni mustahkam milliy e'tiqod ufqidan boqib, teranroq tahlil va talqin qilish mumkin. Jumladan, qadimgi yunon falsafasining eng yirik tadqiqotchisi Forobiy borliq muammosini yangicha hal qilgan edi.

Sizif tuygan mislsiz hayrat ta'sirida horg'inlik va shubha-gumonlar o'rnini qat'iy ishonch egallashi, huzurbaxsh rohat-farog' at his etilishiga e'tibor qaratish lozim. Zotan, shu holat sababli u jismoniy jihatdan holdan toyib, behud bo'lgunicha harakatdan to'xtamaydi. Muhimi, xud va bexudlik orasida yer-u osmon markazidagi ikki vujud: Sizif va xarsang o'rtasida yaqinlik o'rnatiladi. Mislsiz sabr-toqat, mashaqqatlarga bardosh, maqsaddan og'ishmaslik, Yaratganga musallamlilik tufayli jazo va mashaqqat toshi rahm-shafqat va muruvvat toshiga aylana boshlaydi. Aks holda, Sizif uning biqiniga betini qo'yib yotmas, hushiga kelganida ma'naviy yengillik, ruhiy tiniqlash his etmasdi.

Cholg'u asbobi bo'lgan doira va uning to'garak — aylana asosi keng ma'noda dunyoni anglatadi. Barcha yaratilgan borliq childirmasining sehrli ohangi va "Lakalum lak-lakalum! Laka-laka lak, lakalum!... Lakalum lak-lakalum! Laka-laka

lak, laka-laka lak, lak-laklakalu-u-u-m-m!" usuliga o'ynaydi [Do'smuhammad 2019: 84]. Biz shu aylana — "to'garak jahon" ichida yashaymiz. Childirmachi irodasiga bo'lgan e'tiqodimiz mustahkam yoki sustligiga ko'ra, o'ynayotgan raqsimiz ham borliqdan taralayotgan musiqa ritmiga jo'rovoz-ohangdosh bo'lishga mahkum. Sizif mahkumligi e'tiqod mustahkamligi negizida kechgani uchun roman qahramoni umumiylik bilan uyg'unlasha oladi. Musiqa har qancha davomli tuyulmasin, belgilangan chegaralar kesib o'tilgan nuqtada u keskin tinadi. Shunga ko'ra, insoniyat ikkita katta doiraga ajraladi:

1. Qismatga ko'ngan va uning asroridan voqiflar doirasi.

2. Johillar doirasi [Yoqubov 2021: 138].

Sizif o'z taqdiridan yuz o' girmaydi. Chunki har bir kimsa belgilangan qismatini ado etish uchun yaralishiga ishonadi. Shu bois yorug'kun, qorong'i tun, uyquda yoki uyg' oq, hushida yoinki behushlik qahramon uchun katta ahamiyat kasb etmaydi. Qayrda, qanday vaziyat va holatda bo'lish — bu moddiy olam o' lchovlari. Sizif uchun eng muhim jihat maqsadli harakatdan to'xtamaslik, harakat shiddatini susaytirmaslikda ko' rinadi. Shuning uchun, romanda barcha masalalar Sizif arvohinining yo'qlik olamidagi hayot va kurash yo' li zaminida tug' iladi va unga kelib bog' lanadi. Bu hol uni mukammal epik obraz darajasiga yuksaltiradi. Sizifning xayol va xotirasida tiklangan foniyl olamdagi o'tmishi oqillik, rostgo' ylik, bunyodkorlik, qobiliyat va tadbirkorligini ulug' ishlarga safarbar etish, xususan, shahar qurishdek ezguliklardan iborat. Demak, uning ilm-hunari real hayot va odamlar turmushi bilan chambarchas bog'langan. Yo'qlik dunyosiga ko' chgan Sizif arvohi xokisorlik yo' lini tutishdan zarracha or qilmaydi. Bu hol uning ikki olamdagi hayotini ishq negizida tasavvur qilish imkonini beradi.

Anglashiladiki, epik qahramon hamisha ko'ngil istagi, qalb amri bo' yicha harakat qilgan. Shohlik uning orzu-armonini amalga oshirish uchun vosita vazifasini o'tagan.

Demak, “Donishmand Sizif”dagi xarsang obrazi asar syujeti izchilligida turlicha ramziy yuk tashib boradi:

1. Asar boshlanishida xarsang insonning taqdiri bitigi ramzi tarzida namoyon bo'ladi. Buni Qadimgi Yunon miflaridan biri bo'lgan Sizif haqidagi afsonaga bog'lansa, yanada oydinlashadi. Chunki asar syujetining boshlang'ich nuqtalarida Sizif xuddi shu taqdirga munosib ko'rilishi yoritilgan.

2. Sizif xarsangni sekin-asta yoqtirib qola boshlaydi, unga botinan yaqinlashadi: uni o'zidan ayri tasavvur qila olmaydi. Bu o'rinda xarsang hayot, umr ramzi sifatida ko'zga tashlanadi. Chunki odam dunyoga kelar ekan, asta-sekin borliqqa moslashadi, hayot o'tkinchiligini bilsada, Sizif taqdiridagi tosh yumalatish yumushiga ko'nikkandek, inson ham shu o'tkinchilikka ko'nikishga o'rganadi.

3. Asar yakunida xarsang imkon, umid ramzi bo'lib keladi. Endi xarsang chorasizlik ramzi emas, Sizif uchun o'zgartirish mumkin bo'lgan taqdir hamda umidning amalga oshirishidir. Xarsangni parchalash orqali umr bo'yi besamar dumalatish mahkumiyatidan xalos bo'lgan Sizif uchun xarsangni imkoniyat ramzi deb atash mumkin.

“Donishmand Sizif”da xarsang obrazining boshqa qirralarini ham uchratish mumkin. Asarda “tinimsiz mashaqqatga, jamiki uqubatga” yolg'iz inson chidashi, bardosh berishi mumkin, ammo na tosh, na temir, na metin, na boshqa mavjudot dosh berolmaydi, degan fikr ilgari surilgan, insonning yengilmas irodasi, sabr-toqati, qat'iyati kabi fazilatlar ulug'langan. Asar mohiyatida bu dunyoning o'tkinchiligi, unda shaxsiy manfaatlar quliga aylanmaslik, aksincha, oldiga aniq maqsadni qo'yib, kuchli iroda bilan yashalsa, albatta murodga yetiladi, degan yuksak falsafiy g'oya yotadi. Shu jihatdan bu asarni tom ma'nodagi falsafiy-intellektual roman deb atash mumkin. Bu kabi



asarlar mavjud ramziy mazmunni anglashi uchun o'quvchini yanada sergaklikka, o'z badiiy-estetik tafakkurini o'stirishga chorlaydi.

1-jadval

**“Donishmand Sizif” romanidagi predmet detali va ramziy obrazlar**

| Badiiy detal va obraz | Ramziy ma'nolar va poetik vazifasi                        |
|-----------------------|-----------------------------------------------------------|
| xarsangtosh           | dunyo, taqdir, raqib, do'st, muhabbati                    |
| bulut                 | vaqt                                                      |
| dengiz                | umr                                                       |
| cho'qqi               | ayol (har bir narsaning jufti bo'lish kerakligiga ishora) |
| zanjir kishanlari     | qilingan gunohlar                                         |
| qayiqchi chol         | hayotdan zerikkan, maqsadsiz inson                        |

Xurshid Do'stmuhammad — milliy adabiy an'analarni ham, dunyo adabiyoti tajribalarini ham puxta o'zlashtirgan, doimiy izlanish, so'z va fikr qolipini yangilashga intilgan ijodkor. Adibning o'zi e'tirof etganidek, *“Uslub o'zgarmasa, dunyoqarash, hayot murakkabliklarini badiiy idrok va ifoda etish yo'sinlari o'zgarmasa, shu yo'lda turli tajribalarga qo'l urmasa, bunday yozuvchi nafaqat milliy adabiyotda, loaqal o'z ijodida ham biror-bir yangilik yaratishi amrimahol”* [Do'stmuhammad 2019: 6]. Absurd tarafdorlarining fikricha, inson o'zining nima uchun yashayotganligini ham anglab yetmaydi. Anglashga intilish esa ekzistentsializmning mohiyatini tashkil etadi. Absurdga garchi yashash ma'nisiz bo'lsa ham umid bor, odam nimanidir kutib yashaydi. Bu ma'nisiz hayotning aldamchi jilolariga uchib, tarkidunyo qilish yoki o'zini o'zi mahv etish ham absurdga zid.

Muallif asar qahramonining ongli va ongsiz holatlari chegarasiga ham alohida e'tibor qaratishi lozim. Chunki insonda bilish va erishish hamda zabt etish istagi uyg'onsa (X. Do'stmuhammadning “Donishmand Sizif” asaridagi Sizif singari), u albatta bunga erishadi. Bunday erishuvchanlik uni ba'zan cheksiz ruhiy azob va iztirob iskanjasida qolishga olib kelsa, ba'zan esa ko'tarinki kayfiyat va shod-xurramlikka erishtiradi. Z. Freyd ta'limoti nuqtai nazaridan qarasak, psixoanaliz onglikni ongsizlikdan, ijtimoiylikni idividuallikdan qidirish orqali tasvir voqeligining mazmun-mohiyatini ochib berishga undaydi [Boboqulov 2022: 53].

Harakatning eng murakkab turi sanalmish ijtimoiy harakatning moddiy tashuvchisi (substantsiyasi) inson va insoniyat jamiyatidir. Chunki insonning hayoti, tafakkur tarzi, jamiyatning mavjud bo'lishi, turli munosabatlarga kirishishi eng oliy darajadagi harakatdir. Harakat shakllari orasida qat'iy ketma-ketlikdagi bog'liqlik (subordinatsiya) mavjud. An'ana zaminidan uzilgan hech qanday harakat mavjud emas. Binobarin, odamzod biologik qonunlardan yuksak bo'lgan normalar (vorisiylik va qadriyatlar), taraqqiyotning muayyan davriga taalluqli yangi xossa va sifatlar asosida yashaydi. Insonni kelajakka yo'naltiruvchi kuch anglangan zaruriyatdir. Inson murakkab yaratiq

ekanligi bois uning ongi, qalbi va ruhiyatidagi o'zgarishlar ham g'oyatda serqirra, ba'zida tushuniksiz tarzda kechadi. Chunki ichki beqarorlik va barqarorlik, o'zgarish va osoyishtalik insonning o'zida birlashadi. Inson harakati — ichki ziddiyatli jarayon. Unda genetic takror ham, bir xillikdan ko'p xillikka, oddiydan murakkabga tomon intilish istagi ham, ichki ijodiy qudrat ham mavjud. Shu ma'noda xalqimizning axloq va ta'lim-tarbiya, inson hamda uning Yaratuvchisi munosabatlari haqidagi qarashlari ham poklanishga yuz tutgan jamiyatimiz va millatdoshlarimizning olam va odamni tushinish, mulohaza qilish, hukm-xulosalar chiqarish tarzi hamda harakatlari, xususan, zamonaviy roman tafakkurida ulkan ahamiyat kasb etmoqda [Yoqubov 2021: 135].

Aslida inson bu yorug' dunyoga o'z hayotidan ma'no izlash, unga mazmun bag'ishlash uchun keladi. Ollohning irodasi ham shunday, olamdagi hamma narsa inson uchun, uning baxt-saodati uchun yaratilgan. Demak, undan voz kechish bema'nilikdir. Darvoqe, Kamyu o'z Sizifining ona yerga bo'lgan muhabbatini, yashashga bo'lgan ishtiyoqini ham alohida qayd etadi. Zero, absurd qahramon bu ma'nisiz turmushda umid bilan yashar ekan, iloji boricha, yerdagi narsalarga mehr qo'yishi kerak. Shu jihatdan Kamyu o'zining "qadrdon toshi" tomon horg'in, lekin shaxdam qadamlar bilan absurd qahramonining dastlabki paytdagi g'am-anduhli qiyofasi yerga yaqinlashgani sari o'zgarib borayotganiga e'tibor qaratadi [Yoqubov 2021:120]. Sizif qoyadan qaytar ekan, yer bag'riga yaqinlashgan sayin vujudida kuchli mehr, adoqsiz muhabbat, baxtiyorlik, osoyishtalik tuyg'ulari paydo bo'la boshlaydi. Biroq bu aldamchi tuyg'ulardir, ularni his qilgani sari yuragidagi g'am kattalashib, uni eza boshlaydi. Chunki u bu narsalardan endi lazzatlana olmaydi. Uni tosh kutib turibdi, o'z ishi bilan mashg'ul bo'lishi shart. Sizif peshonasiga yozilganidan qochib qutula olmaydi. Real hayotdagi inson ham ana shu qismatga mahkum. U.Jo'raqulov ta'kidlaganidek: *"Haqiqatdan ham, odam hayotning shafqatsiz qonunlari tomonidan mahv etiladi. Bir so'z bilan aytganda, insonning ideal dunyosi bilan real dunyo, orzulari bilan vujud ehtiyojlari kesishgan nuqtada fojia — Hazrati Inson fojiasi maydonga keladi. Shunda odam oldida ikki yo'l — orzularini qurbon qilib jamiyat ichra baxtiyor turmush kechirish yoki orzulari bilan yolg'iz qolib, shafqatsiz hayot sahnasida tragik obrazga aylanish qoladi..."* [Jo'raqulov 2015: 165].

Inson o'z hayoti davomida dunyoda mavjudligining, harakatlarining ma'nosini izlaydi. Lekin Kamyu ijodi orqali dunyoning insonlarga befarqligi, inson mavjudligining ma'nosiz hayot azoblaridan iborat bo'lishi, keyin esa o'lim muqarrar va inson holatining absurd ekanligini alohida ta'kidlab o'tgan.

Alber Kamyuning asosiy kuchi shundaki, u o'zining ekzistensial dardini yetuk falsafa: absurd falsafasiga aylantirishga muvaffaq bo'lganidadir. Shuning uchun ham Kamyu absurd tushunchasini insonning o'z mavjudligida ma'no yo'qligi bilan duch keladigan tuyg'u ekanligini ta'kidlab o'tgan va asarlariga olib kira olgan yetuk ijodkordir.

Kamyuning yozishicha, baxt bilan absurd shu ona yerning egizak farzandlaridir, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Buning ma'nosi

shundaki, dunyoga kelgan inson bu ma'nisiz hayotda o'ziga sabr-toqat, taskin izlaydi (bu – baxt), ammo uni topolmay umri o'tadi (bu – absurd) [ <https://kh-davron.uz>].

2-jadval

### Sizif obrazining badiiy sintezi

| Yunon afsonasida  | Xurshid Do'stmuhammad romanida | Mushtarakligi                    |
|-------------------|--------------------------------|----------------------------------|
| tamagir, xudbin   | tadbirli, adolatli             | donishmand, sabrli               |
| qaroqchi          | hokim                          | irodali                          |
| xudolarni aldagan | sirdan xabardor                | isyonchi, itoatkor moslashuvchan |

### Xulosa

1. Sharq va G'arb adabiy an'analari asosida yaratilgan asarlar g'oyasida mushtaraklik kuzatiladi. Kitobxon asarni o'qigach, hayot mashaqqatlariga taslim bo'lmay, oldinga umid bilan harakat qilish uchun kuch topadi. Asarning badiiy qudrati shunda namoyon bo'ladi.
  2. Asarda yaxshi yashash emas, uzoq yashash kerakligi, quruq iroda bilan emas, harakatga aylangan iroda bilan yashamoq darkor. Mashaqqatlarga bardosh berishda esa faqat sabr-toqat insonga yordam bera oladigan kuch ekanligi ko'p bora ta'kidlangan.
  3. To'xtovsiz o'tkinchi zamonga tog'-u tosh, xarsangtosh dosh bermasligi mumkin. Ammo Sizifning nazarida vaqt to'xtab qolgandek, u vaqt tushunchasini allaqachon unutib yuborgandek edi. Eng dahshatlisi vaqtni unutgan, o'zini ham unutadi. O'zini unutgan inson rejani, hisob-kitobni unutadi. Xuddi yashamayotgandek yashaydi.
  4. Ozod va mahkum odam ruhiyati orasida keskin farq borligi kabi, bu ikki tipdagi odamning jamiyat bilan munosabati o'rtasida ham olamcha tafovut mavjud. Jazoni o'tashda Sizifga xotira va tasavvur najotkorga aylanadi hamda ulardan halovat va taskin topadi.
  5. Sizif o'z missiyasini bajarish davomida xarsangtosh bilan musobaqa o'ynaydi va abadiyat savoliga javob topishga intiladi. Uning xayolida gap sotsa, hozir bilan; sukut saqlasa, abadiyat bilan muloqotga kirishayotgandek bo'lar edi. Chunki hozirga xizmat qilinsa, kelajak oldida muttahamlik, kelajak va boqiylik ruhida yashasa, hozir uchun begonaga aylanadi inson. Bu yo'lni qay biri afzalligini har bir inson muhtasham umri davomida o'zi qilgan amallari orqali tanlaydi.
- Sizif ortga qaytmaslik uchun, o'ziga o'zi savol berib (Nahot insoniy qudrat ila shu yumushni uddalay olmasam? Nahot mana shu yelkasiga tirq'alib jonsiz, zabonsiz, beso'naqay tosh bilan til topisha olmasam?!), ruhlantirish orqali taslim bo'lmaslik fikrini ongiga singdirgandi.
6. Sizifga bejiz donishmand sifati berilmagan. Uning jazoni bajarish davomida ko'rgan mashaqqatlari, olgan xulosalari ayni hayot haqiqati edi. Uning fikricha, odam bolasi borki, kuzatuvchi va kuzatiluvchi bo'ladi. Har bir inson nazardan xoli bo'lmaydi, uning hayot yo'li, qilgan ishlari doimo kuzatuvda bo'ladi.

7. Inson bolasi yengib, yengilganiga rozi bo'lib ketishi uchun yaratilmaganligini yozuvchi Sisif (ichki "men") obrazi orqali yetkazib beradi. Ichki "men"ni yo'qotish o'zlikni yo'qotish, yolg'izlikka, yo'qsizlikka ko'nikishdir. Shuning uchun Sizif Sisif uchun ham shartni bajarishni o'z oldiga eng oliy maqsad qilib qo'yadi. Qandaydir jonsiz bir matoh — xarsangtosh ostida qolib ketishni o'zining insoniylik qadr-qimmatiga munosib hisoblamaydi. Agar xarsangtosh dunyo tashvishlari misolida bo'lsa, bu sinovlar insonni yanchishi emas, uni komil inson sifatida tarbiyalanishiga, hech narsaning mukammali bo'lmasligi (mukammalik Yaratganga xos), lekin shu o'rinda hayot falsafani ham unutmaslik kerak: baxtsizlikdan hech kim butkul kafolatlanmaydi, baxtdan ham hech kim mosuvo etilmaydi.

8. Tosh qanchalik balandga otlsa, u shunchalar shiddat bilan pastga tushadi. Odam-chi? Sizif cho'qqidan qaytishda osmonga otilgan toshdan-da tezroq tushadi. Inson ham qanchalik yuqori mansabga intilsa, shunchalik tez undan ayriladi. Bundan shuni anglash mumkinki, shodlanganda shoshilmaslik. Sizif kabi hayqirishga, dunyoga jar solishga hovliqmaslik zarur.

9. Asarning kulminatsiyasi asar so'nggida bo'lib, Sizif boshiga tushgan barcha mashaqqatlarga dosh berdi, ammo xarsangtosh chiday olmadi. Har safar toshning cho'qqidan dumalashi Sizifning fojiasi emas, aslida xarsangtoshniki edi... Bu haqiqatni Sizif anchadan keyin anglab, o'zida hovliqmaslik va sabrlilik kabi fazilatlarni shakillantiradi.

10. Asardagi hikmatlardan yana biri – inson eng vahshiy, eng qo'rqmas hayvonlarga havas qilib, ularning barcha yaxshiliklarini o'zlashtirib olib, insonga aylangani aytiladi. Bundan chiqdi har bir banda yetuklik va komillikka erishmog'i uchun nafaqat vahshiy hayvonlardan, shular qatori tabiatdan ham eng zarur yaxshiliklarni o'zlashtirishi zarur. Aks holda, inson irodasi tabiat irodasini o'zlashtirguniga qadar unga zarar yetkaza beradi.

11. Haqiqat achchiq bo'ladi, hattoki haq so'z toshni ham kesadi. Asarni o'qish davomida haqiqat o'rni kelganda, ishonch, mehr-muhabbatdan-da kattaroq qudratga egaligiga iqror bo'lish mumkin.

Sizifning fikricha, inson bolasi chala tug'iladi, chala yashaydi va shu holda o'lib ketadi. Hatto bu haqiqatni anglab ham yetmaydi. Chunki chala odamning shodlik va qayg'ulari ham to'kis bo'lmaydi. Bunga yechim tarzda shuni aytish mumkinki, inson irodasi harakatga, harakati esa irodaga aylanib ketishi zarur. Qisqa umr davomida inson shu narsaga erishsa bas, har qanday mashaqqatga dosh berishi hamda oliy maqsadiga yetishmog'i oson bo'ladi.

12. Inson bu dunyodagi qilgan qisqa safarida yengilish uchun emas, aksincha yengish uchun kelmog'i kerak. Bu dunyodagi missiyani mazmunli bajarishda Sizif kabi toshdan qattiq iroda va kuchli ishonch yordam beradi.

A. Kamyu va X. Do'stmuhammad asarlarida o'ziga xos poetik ohangdorlik, badiiy joziba hamda kompozitsion butunlik mavjud. Sharq va G'arb ijodkorlari bo'lishiga qaramay, ularning asarlarida ezgulik va yovuzlik, muhabbat va nafrat, donolik va nodonlik kabi ruhiyatning ikki olamida harakat qiluvchi absurd qahramon birinchi planda tasvirlangan.

Mustaqillik davri milliy romanlarining makon va zamon chegaralari behad kengayib bormoqda. Adabiy jarayonda kuzatilayotgan ayni hodisaning romanchilik uchun ijobiy sifat-belgi ekaniga shubha yo'q. Bu holni milliy-adabiy faktorlar, xususan, vorisiylik kategoriyasi va genetik asoslar bilan izohlash muammoning birgina qirrasini aks ettiradi. Keyingi yillar romani poetik ifoda qamrovi reallik, xayolot, tush, xotira o'rtasidagi dabdurdan ilg' ash qiyin bo'lgan aloqadorlik hisobiga boyidi. Badiiy tasvirga qiyoslash, chog'ishtirish, qarshilantirish, kutilmagan tarzda o'rin almashishlar va birikish holatlari kirib keldi. Asarning metaforiklik darajasi behad ortdi.

Insoniyat kelajagi, hayotning tub mohiyati, baxt va baxtsizlik, jaholat va aql-idrok singari tushunchalar har ikkala yozuvchini ham iztirobga soladi. Bu dardchil hislar ijodkorlarni inson o'tkinchi va aldamchi hayotni faqatgina mustahkam iroda, talabchanlik, metindek bukilmas sabot va g'urur, aqilli kishilarga xos bo'lgan vazminlik bilangina yengib yashash kerak, degan xulosaga keladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- Asadov M. Alber Kamyu va Xurshid Do'stmuhammad prozasida absurd qahramon muammosi. "So'z san'ati so'zligi", 3 jild, 2-son. Toshkent. 2020 yil. — B. 117–126.
- Jo'raqulov U. Nazariy poetika masalalari: Muallif. Janr. Xronotop. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. — 309 b.
- Arastu. Poetika. Axloqi Kabir. Ritorika. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011. — 351 b.
- Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. 1-tom. — Toshkent: Fan, 1978. — 415 b.
- Yoqubov H. O'zbek prozasida uslub rang-barangligi. — Toshkent, 1983. — 208 b.
- Yoqubov I. Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi. — Toshkent, 2021. — 335 b.
- Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. — Toshkent: O'zbekiston, 2002. — 560 b.
- Jo'raqulov U. Hududsiz jilva. — Toshkent: Fan, 2006. — 204 b.
- Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. — Toshkent: YANGI NASHR, 2010. — 363 b.
- Mirvaliyev S. O'zbek romani. — Toshkent: Fan, 1983. — 56 b.
- Matyoqubova T. Poetik idrok va mahorat. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2011. — 171 b.
- Rasulov A. Tanqid. talqin, baholash. — Toshkent: Fan, 2006. — 232 b.
- Abdurahmonova M. Istiqlol davri o'zbek romanlarida ramz poetikasi: Filologiya fan nom ... diss. — Toshkent: Fan, 2025. — 139 b.
- Boboqulov Y. XXI asr o'zbek romanlarida inson ruhiyati talqini: Filo. fanlari fan. nom. ... diss. — Toshkent: Fan, 2022. — 153 b.

### Manbalar va lugʻatlar

- Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lugʻati. — Toshkent: Akademnashr, 2010. — 400 b.
- Boltaboyev H. Adabiyot ensiklopediyasi. 1-jild. — Toshkent: MUMTOZ SOʻZ, 2015. — 664 b.
- Doʻsmuhammad X. Ijod — koʻngil munavvarligi. — Toshkent: MUMTOZ SOʻZ, 2011. — 316 b.
- Doʻsmuhammad X. Donishmand Sizif. — Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. — 120 b.
- Kamyu A. Yon daftarchalar. Hikmatlar. Soʻzboshi muallifi va masʼul muharrir: professor A.Saidov; Toʻplovchi: L.Isoqov. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. — 82 b.

### References

- Abdurakhmonova, M. (2025). *Istiqlol davri oʻzbek romanlarida ramz poetikasi: Filologiya fan nomzodi dissertatsiyasi* [Symbolic poetics in Uzbek novels of the independence era: Candidate of philology dissertation]. Tashkent: Science.
- Adabiyot nazariyasi. (1978). *Adabiyot nazariyasi* [Literary theory]. Toshkent: Fan.
- Arastu. (2011). *Poetika. Axloqi Kabir. Ritorika* [Poetics. Ethics of Kabir. Rhetoric]. Toshkent: Yangi Asr Avlodi.
- Asadov, M. (2020). Alber Kamyu va Khurshid Dustmuhammad prozasida absurd qahramon muammosi [The problem of the absurd hero in the prose of Albert Camus and Khurshid Dustmuhammad]. *Dictionary of the Art of the Word*, 3(2). Tashkent.
- Boboyev, T. (2002). *Adabiyotshunoslik asoslari* [Fundamentals of literary criticism]. Toshkent.
- Boboqulov, Y. (2022). *XXI asr oʻzbek romanlarida inson ruhiyati talqini: Filologiya fan nomzodi dissertatsiyasi* [Interpretation of the human psyche in Uzbek novels of the 21st century: Candidate of philology dissertation]. Tashkent: Science.
- Boltaboyev, H. (2015). *Adabiyot ensiklopediyasi* [Encyclopedia of literature]. Toshkent.
- Camus, A. (2014). *Yon daftarchalar. Hikmatlar* [Side notebooks. Proverbs] (A. Saidov, Ed.; L. Isakov, Comp.). Tashkent.
- Dusmuhammad, H. (2011). *Nazarning umidbakhsh kemalari* [Nazar's hopeful ships]. Toshkent.
- Dusmuhammad, H. (2019). *Donishmand Sizif* [The Wise Sisyphus]. Toshkent: Yoshlar Nashriyot Uyi.
- Jurakulov, U. (2015). *Nazariy poetika masalalari: Muallif. Janr. Xronotop* [Issues of theoretical poetics: Author. Genre. Chronotope]. Toshkent: Gafur Gulom Nashriyoti.
- Juraqulov, U. (2006). *Hududsiz jilva* [A boundless evasion]. Toshkent.
- Karimov, H. (2010). *Istiqlol davri adabiyoti* [Literature of the independence period]. Toshkent.



- Kuronov, D., Mamajonov, Z., & Sheraliyeva, M. (2010). *Adabiyotshunoslik lug'ati* [Dictionary of literary studies]. Toshkent: Akademnashr.
- Matyoqubova, T. (2011). *Poetik idrok va mahorat* [Poetic perception and skill]. Toshkent.
- Mirvaliyev, S. (1983). *O'zbek romani* [Uzbek novels]. Toshkent.
- Rasulov, A. (2006). *Tanqid, talqin, baholash* [Criticism, interpretation, evaluation]. Toshkent.
- Yoqubov, H. (1983). *O'zbek prozasida uslub rang-barangligi* [The diversity of styles in Uzbek prose]. Toshkent.
- Yoqubov, I. (2021). *Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi* [Poetics of Uzbek novels of the independence era]. Toshkent.